SAIDA ZUNNUNOVANING “RUH BILAN SUHBAT” DOSTONIDA SURAT, OVOZ VA XOTIRA POETIKASI

Rahim G‘aybulla o‘g‘li MARDANOV
katta o‘qituvchi
filologiya fanlari bo‘yicha (PhD) falsafa doktori
Guliston davlat pedagogika institute
Guliston, O‘zbekiston

Annotatsiya

Maqolada Saida Zunnunovaning 1963–1966-yillarda yaratilgan “Ruh bilan suhbat” dostonining kompozitsiyasi, nutq tuzilmasi va xotira poetikasi tahlil qilingan. Dostonning nomi 1976-yilgi “Tanlangan asarlar” jildidagi shakli asosida aniqlashtirilgan. To‘ydan keyingi tundan tonggacha kechadigan syujetda urush bevasi bo‘lgan ona bilan devordagi surat orqali so‘zlovchi marhum umr yo‘ldosh o‘rtasidagi muloqot, shuningdek, “biz” shaklidagi jamoaviy ovozning paydo bo‘lishi ko‘rsatilgan. Ona nutqidagi urush davri xotirasi, ayollar mehnati va urf-odatni buzish lavhasi gender nuqtayi nazaridan sharhlangan. Doston shaxsiy ayriliq mavzusidan tinchlik va tarixiy mas’uliyat mavzusiga ko‘tarilishi dalillangan.

Tayanch so‘zlar: Saida Zunnunova, doston, dialog, surat, xotira, urush mavzusi.

ПОЭТИКА ОБРАЗА, ГОЛОСА И ПАМЯТИ В ПОЭМЕ САИДЕ ЗУННУНОВОЙ «БЕСЕДА С ДУШОЙ»

Рахим Гайбулла угли МАРДАНОВ
старший преподаватель
Доктор философии (PhD) по филологическим наукам
Гулистанский государственный педагогический институт
Гулистан, Узбекистан

Аннотация

В статье анализируются композиция, речевая структура и поэтика памяти поэмы Саиды Зуннуновой «Беседа с душой», созданной в 1963–1966 годах. Название уточняется по тексту издания 1976 года. В сюжете одной ночи, от свадебного вечера до рассвета, прослеживается диалог матери-вдовы с погибшим мужем, который говорит через портрет на стене, а также появление коллективного голоса «мы». Военная память, женский труд и эпизод нарушения обычая в речи матери рассматриваются в гендерном аспекте. Показан переход поэмы от темы личной утраты к теме мира и исторической ответственности.

Ключевые слова: Саида Зуннунова, поэма, диалог, портрет, память, военная тема.

Saida Zunnunova o‘zbek adabiyotida lirik shoira, yozuvchi va dramaturg sifatida tanilgan. Uning ijodida doston janri alohida o‘rin tutadi. 1976-yilda chop etilgan “Tanlangan asarlar” uch tomligining birinchi jildida “Dostonlar” bo‘limiga

“Ruh bilan suhbat”, “Qo‘shnilarim” va “Alla” kiritilgan, jild mundarijasida ular mos ravishda 305, 318 va 332-betlardan boshlanadi [1]. Munaqqid I. G‘afurov bu dostonlarni, “Lirik nutq” bilan birga, shoira ijodidagi eng yaxshi asarlar qatoriga qo‘shadi va ularda ayollarning vafosi, onalikning fidokorligi, tinchlik masalasi ko‘tarilganini ta’kidlaydi [2; 461– 462].

Shunga qaramay, “Ruh bilan suhbat” dostoni poetik tuzilishi jihatidan alohida tadqiq etilmagan. Ba’zi ommabop manbalarda u “Surat bilan suhbat” shaklida ham uchraydi. Ammo 1976-yilgi nashrda asar nomi mundarijada, matn boshida va kitob annotatsiyasida bir xilda “Ruh bilan suhbat” deb berilgan [1; 305]. Shu sababli maqolada asarning nashrdagi nomi saqlanadi, “surat” esa dostonning markaziy obrazi sifatida tahlil etiladi. Mazkur farq tahlili shuni ko‘rsatadiki, sarlavha suhbatni suratga emas, ruhga bog‘laydi, ya’ni surat ruh so‘z oladigan vosita.

Maqolaning maqsadi dostonning kompozitsiyasi, so‘zlovchilar tizimi va xotira poetikasini matn asosida ko‘rsatishdir. Tadqiqotda M. Baxtinning dialoglik haqidagi qarashlari [5], N. Rahimjonovning “badiiy asar biografiyasi” tushunchasi [3] va M. Xrapchenkoning ijodiy individuallik haqidagi nazariyasi [6] metodologik tayanch bo‘lib xizmat qildi. Dostonning matni oxirida “1963–1966” sanasi qo‘yilgan [1; 317]. Uch yilga cho‘zilgan ish jarayoni asarning uzoq pishib yetilganini ko‘rsatadi.

Doston to‘y tugaganidan keyingi tun manzarasi bilan boshlanadi. Mehmonlar tarqagan, to‘yxonada tun hukm suradi, o‘chog‘da cho‘g‘lar miltillaydi, samovardan tutun o‘rmalaydi. Kelin-kuyov o‘z xonasida, ona esa uxlay olmaydi. Shodlik bilan xotira uning qalbini qamrab olgan [1; 305]. Bu tafsilotlar sokin, maishiy xarakterda berilgan va keyingi fojiaviy qatlamlar uchun zamin tayyorlaydi. Ona yig‘ilmagan dasturxonga qaraydi, kelinning hech narsa yemaganidan xavotirlanadi, so‘ng uni “uyalgan bechora” deb mehr bilan eslaydi. Shu paytdayoq asar markazida ona obrazi turishi, uning ichki kechinmalari syujetni harakatga keltirishi sezilib qoladi.

Dostonning tashqi vaqti bir kechadan iborat, ya’ni to‘ydan keyingi tundan tong otguncha. Ichki vaqt esa ancha keng. Ona nutqi orqali oila qurilgan bahor, erning urushga ketishi, qaynonaning vafoti, zavoddagi mehnat yillari, o‘g‘lining voyaga yetishi va nihoyat bugungi to‘y bir-biriga ulanadi. Bir kechalik tashqi voqea bilan

o‘nlab yillik ichki vaqtning bunday qorishuvi retrospektiv kompozitsiyaga xos. Muhimi, o‘tmish xotira sifatida alohida bayon etilmaydi. O‘tmish dialog jarayonida, savol-javoblar orqali “tirilib” turadi.

Ona gulli guldastani devordagi suratning yoniga qo‘yadi va unga gapira boshlaydi. U avval suratga zimdan murojaat qiladi, erining qaynota bo‘la olmaganini, bugun uyga odam to‘lib, farzandining yoniga farzand qo‘shilganini aytadi. Surat esa “hamon o‘shandayligicha” sukutda. Ona jim-jidligga chiday olmaydi va iltijo qiladi. “Nega indamaysan, oh, surat, surat!”, “Bir nafas tilga kir, mayli, bir sekund” [1;307].

Nega indamaysan, ey surat, surat!
Bir nafas tilga kir, mayli, bir sekund,
Daryo bo‘lib oqqan yoshlarim haqqi.
Ko‘yingda ming toshga urilsa hamki,
Ming toshdan qattiqroq boshlarim haqqi,
Bir nafas tilga kir, mayli, bir sekund [1; 307].

Iltijo oxirida u o‘z sadoqatini sanaydi, qabr ustida cho‘kkan, sovuq tuproqni qucharkan, qishda qorni quchib, yozda suv sepgani borgan. “Sensiz yig‘lamadim, kulmadim sensiz” misrasi bu sadoqatning to‘liqligini ifodalaydi.

Qishda kuragani bordim qorlarni,
Yozda suv sepgani oshiqdim har vaqt.
Bahor oftobiga chirmashib doim,
Gohi gul o‘tqazdim, gohida daraxt.
Bir nafas qo‘ymadim men seni yolg‘iz,
Bir dam tanholikka tashlaganim yo‘q.
Sensiz yig‘lamadim, kulmadim sensiz,
Sensiz ko‘nglimni ham xushlaganim yo‘q [1; 307].

Keyingi lavhada sukut buziladi. Bu o‘rinda badiiy shartlilik juda sodda vosita bilan amalga oshiriladi, surat o‘lik buyum bo‘lib qolmaydi, to‘laqonli suhbatdoshga aylanadi. Muallif uning nutqini “Surat”, onaning nutqini “Ona” belgilari bilan ajratib beradi. Asarni dramatik asarlarga xos remarkali tuzilishga yaqinlashtiradi. Shu tariqa

lirik monolog dialogga o‘tadi. Baxtin ta’biri bilan aytganda, qahramon o‘z ovozini boshqa ovoz bilan to‘qnashuvdagina topadi [5].

Unsiz tilga kirdi surat ham birdan,

Ona quloq bo‘lib o‘zini unutdi [1;308].

Dostonning sarlavhasidagi “ruh” so‘zi bu muloqotning mohiyatini belgilaydi. Surat ko‘rinadigan belgi, ruh esa unga so‘z beruvchi ichki mavjudlik. Onaning o‘zi yetib bora olmagan “visol” surat orqali, xotira va ovoz shaklida amalga oshadi. Shu sababli bu o‘rinda suratni oddiy personifikatsiya (jonsiz narsani jonlashtirish) deb baholash yetarli emas. U ayriliq bilan uchrashuv, yo‘qlik bilan borliq o‘rtasidagi chegarani belgilovchi poetik ostona vazifasini bajaradi.

Dostonda faqat ikki so‘zlovchi “Ona” va “Surat” turadi. Bu ikki nutq turlicha ohangga ega. Onaning gapi ko‘proq hasrat, savol, xotira va bahsdan iborat. Suratning gapi esa, boshida yupatish va so‘ngra ogohlantirish va da’vatga aylanadi

Yig‘lama, azizim, yig‘lama faqat,

Ko‘z yoshingni ko‘rsam, dilim kuyadi.

Yig‘lasang, hali ham qilmasman toqat,

O‘tmas pichoq bilan kimdir so‘yadi [1;308].

Ona yaqin o‘tmishning mayda tafsilotlarini so‘raydi.

Sen boshqa damlarni eslat, azizim,

Birga yurganimiz xushvaqt onlarni [1; 309].

Surat esa keng tarixiy o‘lchamga chiqadi. U tug‘ilmagan nabira uchun o‘sha kunni unutmaslikni, bepisandlik qilmaslikni talab qiladi.

Dostonning kompozitsion burilish nuqtasi shu yerda. Surat “biz” deb gapira boshlaydi. “Tiriklardan ko‘ra, balki ko‘proqmiz” [1; 313]. Endi unda faqat bitta o‘lgan erning emas, urushda halok bo‘lgan ko‘plab odamlarning ovozi eshitiladi.

Tiriklardan ko‘ra, balki ko‘proqmiz,

Tiriklardan ko‘ra ham inoqroqmiz [1; 313].

Matnda urushda qurbon bo‘lganlar, partizanlar, ayrim ismi aytilgan yurtdoshlar tilga olinadi va ular “yerni elkamizda tutib yotibmiz” deya xalqning yuki ko‘tarilgan joyda turishini bildiradi [1;314]. Shunday qilib, formal jihatdan ikki ovozli matn

mazmunan yakka ona, yakka er va marhumlarning jamoaviy registri. Bu qatlamlar alohida belgi bilan ajratilmagan, ularning o‘tishi nutqning ichida, olmoshlar (“men”, “sen”, “biz”) orqali amalga oshadi. Aynan shuning uchun asar oddiy marsiya yoki murojaat-monolog emas, balki ichki polifoniya (ovoz)ga ega lirik drama sifatida o‘qiladi.

Partizan yashirgan ona-yu o‘g‘il
Hatto o‘zimizning mard Ostonaqul,
Fashistni titratgan Rahimovgacha,
To‘ychi Eryigitov, Hakimovgacha -
Hammamiz shu yerda, o‘q, tomir bo‘lib
Yerni yelkamizda tutib yotibmiz [1; 314].

Dostonning eng kuchli o‘rinlaridan biri ona o‘z o‘tmishini eslaydigan qismdir. U erining urushga ketgani, ukalarining ham ketgani, qaynonasining ayriliqdan olamdan o‘tgani haqida gapiradi. Bu yerda tobut lavhasi alohida ahamiyatga ega. Ona qaynonasining tobutini o‘zi ko‘targanini, shu kuni urf-odatni buzganini, “xotinlikni yig‘ib otganini” aytadi [1;310]. Odamlar uni goh koyigan, goh yoqasidan tutgan. Bu lavha shaxsiy qayg‘ular zamirida jamiyat qoidalariga qarshi turgan ayol qiyofasini ko‘rsatadi. Ayolning marosimdagi odatiy o‘rni uning kuchi va mas’uliyati bilan to‘qnashadi.

Sh. Bazarova Zunnunova asarlarida markaziy o‘rinni ayol qahramon egallashini va mehnat hamda oila orqali ayolning ijtimoiy mavqei ochilishini ta’kidlaydi [7]. “Ruh bilan suhbat”da bu qarash she’riy shaklda namoyon bo‘ladi. Ona na faqat sadoqatli beva, balki mustaqil qaror qiluvchi, jamoada mehnat qiluvchi shaxs. Uning zavoddagi hayoti haqidagi parcha (“ko‘pchilik ayollar edik zavodda”) urush orqa frontining ayollar zimmasiga tushgan og‘irligini umumlashtiradi [1; 311]. U ayollarni “biri yig‘lasa, bari egar bosh” deya birlashgan jamoa sifatida tasvirlaydi. Bir ayolning g‘amini hammasi baham ko‘radi. Shu tarzda ona obrazi shaxsiy fojianing chegarasidan chiqib, avlod tajribasining timsoliga aylanadi.

Ona obrazini shoiraning o‘z tarjimai holiga bevosita tenglashtirib bo‘lmaydi. Dostonning qahramoni urushda erini yo‘qotgan ayol, Zunnunovaning turmush

o‘rtog‘i esa omon bo‘lgan. Shuning uchun asarni avtobiografik hujjat sifatida emas, urush avlodi ayollari tajribasini umumlashtiruvchi badiiy qiyofa sifatida o‘qish to‘g‘riroq. I. G‘afurov ham shoira urushni o‘z ko‘zi bilan ko‘rmagan bo‘lsa-da, uning barcha azoblarini ko‘rgan va his qilganini, urush xotirasi unga tinchlik bermaganini qayd etadi [2;461]. Bu fikr dostonning xotira poetikasini tushunishda muhim tayanchdir. Xotira bu yerda shaxsiy kechinma emas, jamoaviy ovozga aylangan tajriba.

Dialog davom etgani sari mavzu kengayadi. Suratning gapida urushning nafaqat o‘tmish, balki hozirgi tahdid ekani aytiladi: osmonda yo‘ldoshlar uchmoqda, suvlar ostida atom ko‘chmoqda. Marhumlar Vetnam ustidagi bomba va o‘qlar tezroq tinishini kutib yotganlarini aytadi [1;308]. Ona javobida Toshkentda Hindiston va Pokiston “tilu dil topishgani”ni eslaydi va “Toshkentning musaffo, erkin havosi yovuz niyatlarni chilparchin etdi” deb ta’kidlaydi [1;315]. Bu misralar, ehtimol, 1966-yil boshidagi Toshkent muzokaralariga ishora, ya’ni asar yozilayotgan davrning aniq voqeasi shaxsiy xotira bilan bir matnda uchrashadi.

Bu o‘rinlarda doston rasmiy davr nutqiga ham yaqinlashadi. I. G‘afurov dostonlarning sarlavhalaridagi “suhbat”, “alla”, “nutq” so‘zlarida yorqin publitsistik ruhga ishora borligini aytadi [2;462]. Haqiqatan, onaning “ayollar nomidan” so‘zlashi va tinchlikni asrash chaqirig‘i dostonda ommaviy murojaat ohangini kuchaytiradi. Biroq bu ohang shaxsiy kechinmani siqib chiqarmaydi. Aksincha, ona o‘z shaxsiy yo‘qotishidan kelib chiqib dunyo tinchligi haqida gapirganligi sababli, bu da’vat ishonchli eshitiladi. Shaxsiy va ijtimoiy qatlamlarning o‘zaro bog‘lanishi dostonning badiiy kuchini ta’minlaydi.

Dostonning tugallanishi esa yana maishiy dunyoga qaytadi. Tong otadi, derazadan nur tushadi, mysicha ququlaydi, bulbul sayraydi. Kelin birinchi marta onani “oyi” deb chaqirishi va uni choyga taklif qilishi mumkin. Shundan so‘ng muallif savol qo‘yadi: kelin onaning bedor tunini va o‘sha kungi suhbatni bilarmikan? [1;317]. Bu savol dostonning poetik yakuni. Ona tajribasi, suhbat va xotira ko‘rinmas holda yangi avlodga uzatiladigan meros sifatida qoladi. Suratning “tug‘ilmagan nabira” haqidagi talabi shu bilan mantiqan tugallanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, “Ruh bilan suhbat” dostoni Saida Zunnunova dostonchiligining yetuk namunasidir. Asarning nomi 1976-yilgi nashrda “Ruh bilan suhbat” shaklida berilgan va tahlilda shu nom asos qilib olingan. Dostonda bir kechalik tashqi voqea o‘nlab yillik ichki vaqtni o‘ziga singdiradi, surat esa so‘zlovchi shaxsga aylanib, ayriliq va uchrashuv orasidagi poetik ostonaga aylanadi.

Formal jihatdan ikki so‘zlovchili (“Ona” va “Surat”) matn Suratning “biz” deya gapirishi bilan jamoaviy ba’zaga o‘tadi va marhumlarning ovozini eshittiradi. Ona obrazi urush davri ayollari tajribasini umumlashtiradi, tobut lavhasi esa ayol faolligini ko‘rsatadi. Shaxsiy xotiradan tinchlik va tarixiy mas’uliyat mavzusiga o‘tish dostonning asosiy kompozitsion qonuniyati bo‘lib, bu qonuniyat shoiraning keyingi dostoni “Qo‘shnilarim”da boshqa shaklda, xotira va yodnoma shaklida, davom etadi. Kelgusi tadqiqotlarda dostonning qo‘lyozma variantlari topilgan taqdirda, uning ustida ishlash jarayonini badiiy asar biografiyasi nuqtayi nazaridan o‘rganish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Зуннунова С. Танланган асарлар. Уч томлик. 1-жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1976. – 368 б.

2. Ғафуров И. Саида Зуннунова ҳақида сўз // Зуннунова С. Танланган асарлар. Уч томлик. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1978. – Б. 449–469.

3. Раҳимжонов Н. Бадиий асар биографияси. – Тошкент: Фан, 2008.

4. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari: darslik. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020.

5. Бахтин М. Эстетика словесного творчества. – Москва: Искусство, 1986.

6. Храпченко М. Творческая индивидуальность писателя и развитие литературы. – Москва: Советский писатель, 1972.

7. Bazarova Sh.Sh. Saida Zunnunova asarlarida feministik qarashlarning aks ettirilishi // «Sharq tillarini o‘qitishning dolzarb masalalari» ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Vol. 2, Special Issue 24. – 2022. – B. 155–164.

8. Норматов У. Ижодкорнинг дахлсиз дунёси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2008.

9. Носиров Ў. Ижодкор шахс, бадиий услуб, автор услуби. – Тошкент: Фан, 1981.